

Quyoshi saxiy, odamlari mehrli yurt

Zamira Ibrohimova



Zamira Ibrohimova
1953

Zamira Ibrohimova – bolalar yozuvchisi, olima va tarjimon. 1953-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. U dastlab yozgan ertaklarini faqat farzandlariga aytib bergan. Ularning qiziqib eshitishganidan ta'sirlanib, ertak va hikoyalarini "G'uncha", "Gulxan" jurnallariga, "Tong yulduzi" gazetasiga yubora boshlagan. Birinchi hikoyasi jurnalda chiqqanida rosa xursand bo'lgan.

Endilikda uning "Uyqu nega xafa bo'ldi?", "Tish qurti haqida ertak", "Gulbahorning do'stlari", "Onasini qidirgan jo'ja", "Hisobda adashgan bola", "Ko'chaning fayzi", "Alisherning mitti mehmoni" kabi kitoblari yosh kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi.



Qadim zamonlarda bir musofir safarga chiqibdi. Uzoq yo'l yurib, bepoyon dalalar, sersuv daryolar, baland tog'lar bag'rida joylashgan ajoyib bir yurtga kelibdi. Yurt osmoni musaffo, bog'lari yam-yashil, mevalari asaldan-da shirin ekan. Dalalarda bug'doylar tebranib, paxtazorlar oppoq momiqqa burkangan, ariqlarda zilol suvlar sho'x jildirab oqar ekan.



Istarasi issiq, yuzidan nur yog‘ilgan odamlar esa eshikdan kelgan mehmonga: “Qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin! Xush kelibsiz!” – deb dasturxon yozar ekan. Musofir bu o‘lkaga maftun bo‘libdi va qayerga borsa: “Quyoshi saxiy, odamlari mehrli yurt”, – deb ulug‘labdi. Bu go‘zal diyor O‘zbekiston ekan!

Darhaqiqat, yurtimiz quyoshi issiq, tabiati rang-barang, odamlari samimiy, oqibatli va mehnatsevar... Xalqimiz qadimdan halol mehnat bilan rizqini topgan. Dehqonchilik qilib paxta va bug‘doydan ulkan xirmon ko‘targan. Bog‘larida xushbo‘y olmalar, sersuv noklar, totli anjirlar, polizlarida shirali qovun-tarvuzlar pishgan.

Ajdodlarimiz temirchilik, to‘quvchilik, kulolchilik, kashtachilik, zargarlik, gilamchilik kabi hunarlar bilan shug‘ullanganlar, ularni taraqqiy ettirish uchun tinmay izlanganlar. Ipak ip tayyorlashni III asrdayoq o‘rganib, nafis matolar to‘qiganlar.

Ota-bobolarimiz bog‘ va dalalarga suv yetkazish uchun butun vujudlari bilan harakat qilganlar.



Suv bor joyda hayot bor. Suv bilan daraxt ko‘karadi, don pishadi, gul ochiladi. Suv – bebaho ne‘mat, uni uvol qilish gunoh. Suv nafaqat odamlar, o‘simliklar va jonivorlarga, balki hayotimizning boshqa ko‘plab sohalariga ham juda kerak. Uyimizdagi chiroqning yonishi yoki muzlatkichning ishlashida ham suvning kuchi bor. Suvdan elektr quvvati olish uchun daryolarga yirik gidroelektrostansiyalar – GESlar quriladi. Suvning kuchli oqimi turbinalarini* aylantirib, elektr energiyasi hosil qiladi. Elektr toki uylarimizga yetgach, chiroqni yoqadi, xonadonimiz nurga to‘ladi. Elektr toki zavod, fabrikalarga yetib borib, stanok va mashinalarni harakatga keltiradi. Odamlar ular yordamida matolar to‘qishadi, televizor, telefon, avtomobillar ishlab chiqarishadi.

Bugungi kunda ham xalqimizning g‘ayrati va ezgu niyati bilan yurtimizda yangi shaharlar qad rostlamoqda, zamonaviy binolar osmonga bo‘y cho‘zmoqda, mahobatli ko‘priklar qurilmoqda. Ko‘chalarimiz kengayib, bog‘ va xiyobonlarimiz yanada fayzli bo‘lmoqda.





turbina – elektr energiyasi olish uchun moslama




1. Musofir kelib qolgan go'zal va saxovatli yurt qaysi mamlakat edi?
2. Ajdodlarimiz qadimda qanday hunarmandchilik turlari bilan shug'ullanganlar?
3. Suv kuchi orqali elektr energiyasi qanday hosil qilinadi?
4. Ota-bobolarimiz bog' va dalalarga suv yetkazib berish uchun qanday mehnat qilganlar?
5. Hozirgi paytda mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarmoqda?



22-mart butun dunyoda Suv resurslari kuni sifatida nishonlanadi. Suv – sayyoramizdagi eng aziz ne'mat. Usiz Yerdagi hayot yo'q.

Suv sir-sinoatga boy. U uch xil holatda bo'lishi mumkin. $+100^{\circ}\text{C}$ da qaynaydi, 0°C da esa muzlaydi.



Og'zaki taqdimot tayyorlang.

Ipak ishlab chiqarish haqida ma'lumot toping.

Matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

